



OILADA QIZLARNING TA'LIM TARBIYASI

Abdusattarova Sarvinoz Norqo'zi qizi

Oriental universiteti

„Uzluksiz ta'lim pedagogikasi” kafedrasi o'qituvchisi.

sarvinozabdusattarova@gmail.com+998931309660

Rahmatova Shohsanam

Oriental universiteti

„Uzluksiz ta'lim pedagogikasi” kafedrasi Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada oilada qizlarning ta'lim tarbiyasi haqida gap ketadi. Qiz bolalarni tarbiyalash va ularga zamonaviy ta'lim berish masalalari yoritilgan. Shuningdek qizlarni mustaqil fikrlashga ma'suliyatli ilimli, odobli va o'z haq huquqlarini himoya qila olishga o'rgatishning dolzarb jihatlari korib chiqiladi. Maqolada qizlarning jamiyatdagi o'rni oilaviy muhitning ta'siri va ta'lim tizimining uyg'unligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: qiz bolalar tarbiyasi, barkamol shaxs, ota-ona ma'suliyati, oilaviy tarbiya.

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы воспитания и образования девочек в семье. Освещаются аспекты воспитания девочек и предоставления им современного образования. Также рассматриваются актуальные вопросы обучения девочек самостоятельному мышлению, ответственности, образованности, вежливости и умению защищать свои права. В статье анализируются роль девочек в обществе, влияние семейной атмосферы и гармония с системой образования.



Ключевые слова: воспитание девочек, гармонично развитая личность, ответственность родителей, семейное воспитание.

Abstract

This article discusses the issues of girls' education and upbringing within the family. It highlights the matters of raising girls and providing them with modern education. Furthermore, the article examines current aspects of teaching girls independent thinking, responsibility, knowledge, politeness, and the ability to protect their rights. The role of girls in society, the influence of the family environment, and the harmony of the educational system are analyzed.

Keywords: upbringing of girls, harmoniously developed person, parental responsibility, family upbringing.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov qiz bolani tarbiyalashga o'ta nozik va ma'suliyatli vazifa deb qaragan. U o'z chiqishlarida: "Qiz bolani o'qitsak, uni har tomonlama sog'lom or-nomusli qilib tarbiyalasak demakki butun bir jamiyatni kelajakni sog'lom qilgan bo'lamiz", deb ta'kidlagan. Oilada qizlarning ta'lim tarbiyasi nafaqat bir avlod balki butun millat jamiyat kelajagini belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Demak, bugungi qiz bola ertangi ona u o'z qarashlari bilimi va tarbiyasi bilan farzandlariga yo'l ko'rsatuvchi zot hisoblanadi. Ma'naviy barkamol, yetuk, bilimli o'z qadr-qimmatini biladigan qizni voyaga yetkazish esa aynan oila muhiti ota-onasining qilgan munosabati ular bergan tarbiya usullariga bevosita bog'liqdir. Ushbu maqolada biz zamonaviy jamiyatda qiz bolalarni qanday ta'lim tarbiya berish va ularni ta'lim olishiga qanday sharoit yaratib berishimiz kerakligi aytib o'tiladi va qizlarimizning jamiyatdagi o'rni haqida ham keltirib o'tamiz. Oilada qizlarning ta'lim tarbiyasi, oila bu faqatgina bir insoning kelajagi emas, balki butun bir millatining ertangi kunining jamiyat boshidur. "Bir o'g'il bolani o'qitsangiz bir kishini o'qitgan bo'lasiz, bir qiz bolani o'qitsangiz, butun bir oilani jamiyatni o'qitgan bo'lasiz" degan gaplar bejizga emas.



Bugungi kunda qiz bolaning bilimli bo'lishi uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va hayotda o'z o'rnini topishga yordam beradi, lekin u jamiyatga ham foyda keltira oladigan mutaxassis bo'lishi kerak. Bu esa unga moddiy va ma'naviy yordam beradi. Qiz bolani kitobga yoshligidan muhabbat uyg'otish zarur chunki kitob dunyoqarashni kengaytiradi va bemalol fikrni erkin holda bayon qila oladi. Qiz bola tarbiyasida otaning o'rnini beqiyosdir. Otasidan mehr, e'tibor ko'rgan qiz hayotda mard o'ziga ishongan g'ururli bo'lib ulg'ayadi. Qiz bola uchun ona oyna kabidir. Qiz bola onasidan ayollik latofatini, ro'zg'orni, o'zini tuta bilishni, sabrni o'rganadi.

Yurishimizda oilada qiz bola tarbiyasida har doim hayo ibo va ta'lim bilan bevosita bog'liqdir. Qiz bola oilada muomala madaniyati odob qoidalarini o'rganish zarur. Tarbiya aslini olib qaraganimizda qo'rquvga emas balki mehr e'tiborga va bilimga asoslanishi kerak. Bugun u oladigan tarbiya ertaga kelajakdagi oilasi uchun muhim poydevor hisoblanadi. Biz hozirgi kunda qizlarimizga ta'lim tarbiya berishda ko'proq nimaga e'tibor berishimiz kerak, biz ularni ko'proq nazorat qilishimiz, ya'ni ko'proq kitob o'qishga, vaqtini samarali narsalar bilan o'tkazishga harakat va imkoniyat yaratib berishimiz kerak. Biz qizlarimizga tarbiya berayotganimizda haddan tashqari qattiqqo'llik yoki bo'lmasa e'tiborsizligimiz orqali qiz bolani o'ziga bo'lgan ishonchini ikkalanishlarini keltirib chiqaradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganimizda, oilada qizlarning ta'lim tarbiyasi bu-nafaqat bir oila, balki butun jamiyat va kelajak avlod taqdiri bilan bog'liq ma'suliyatli jarayondir. Bugungi kunda qiz bolalarni tarbiyalashda ikki muhim tamoyilga amal qilish zarur: birinchisi-ularga zamonaviy bilim va ko'nikmalar berish, ikkinchisi-milliy qadriyatlar, or-nomus, hayo, sabr-toqat, kabi fazilatlarini singdirish. Bu ikki yo'nalish uyg'unligiga barkamol shaxsni voyaga yetkazish imkonini beradi. Ota-onalar qizlari bilan ochiq va ishonchli munosabatda bo'lishi, ularning fikrini hurmat qilishi, mustaqil qaror qilishga undashi lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. (Ayollar va erkaklar teng huquqligi hamda ta'lim olish huquqi qismlari uchun).
2. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. (Maqolada keltirilgan iqtibos va ma'naviy qarashlar uchun).
4. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq". – Toshkent: O'qituvchi, 1992. (Milliy tarbiya va odob-axloq masalalari uchun).
5. Munavvarov A.K. "Oila pedagogikasi". – Toshkent: O'qituvchi, 1994. (Oilaviy muhit va ota-ona mas'uliyati qismi uchun).
6. Inomova M. "Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi". – Toshkent: TDPU, 1999.
7. Musurmonova O. "Oila ma'naviyati – milliy g'urur". – Toshkent: O'qituvchi, 2000. (Qizlar tarbiyasining ijtimoiy ahamiyati tahlili uchun).
8. Shimarov G'. va boshqalar. "Oila psixologiyasi". – Toshkent: "Sharq" NMAK, 2010. (Ota-bola va ona-qiz munosabatlarining psixologik jihatlari uchun).